



## VII. ISTE'MOL BOZORI

2022- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 9 204,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 10,9 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalar tovar aylanmasi 1 202,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 135,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 8 001,4 mlrd. so'mni (107,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 206,4 mlrd. so'mni (125,2 %)ni tashkil etdi.


Asosiy tarkib, trln. so'm



O'sish sur'atlari, % da




Tarkibiy qism, foizda



Chakana savdo aylanmasi tarkibida yirik korxonalar tovar aylanmasi nisbatan 13,1 % ni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari 86,9 % ni, shundan uyushmagan savdo 13,1 % ni tashkil qilgan.

Uyushmagan savdo, mlrd. so'mda, ulushi % da




## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so‘m (2022- yil yanvar-iyun oylari)

2022- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 9 204,2 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 10,9 % ga o‘tdi. Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha shahar va tumanlarda o‘shish sur‘atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida 86,9 % kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va 13,1 % yirik korxonalar hissasiga to‘g‘ri keldi.

### ENG YUQORI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri 32,3 % ulush bilan 2 972,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



### ENG PAST ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Xonobod shahar 1,1 % ulush bilan 97,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hajmi va o'sish sur'atlari**


	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxona- lar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>9 204,2</b>	<b>110,9</b>	<b>1 202,8</b>	<b>135,4</b>	<b>8 001,4</b>	<b>107,9</b>
Andijon sh.	2 972,9	118,2	996,9	153,2	1 976,0	106,0
Xonobod sh.	97,6	110,4	3,6	68,4	94,0	113,0
<i>tumanlar:</i>						
Oltinko'1	330,1	106,6	6,1	40,7	324,0	109,9
Andijon	568,0	109,4	61,5	78,2	506,5	115,0
Baliqchi	460,7	112,9	18,7	119,1	442,0	112,6
Bo'ston	135,7	101,0	7,6	75,0	128,1	103,1
Buloqboshi	299,3	111,2	5,4	70,1	293,9	112,4
Jalaquduq	254,4	101,7	11,0	155,4	243,4	100,2
Izboskan	291,9	105,9	3,6	42,8	288,3	107,9
Ulug'nor	114,3	123,7	1,4	148,5	112,9	123,4
Qo'rg'ontepa	555,8	101,1	10,3	78,3	545,5	101,6
Asaka	817,0	102,2	28,5	98,9	788,5	102,3
Marhamat	387,9	108,1	9,1	92,3	378,8	108,5
Shahrixon	1 071,9	104,6	14,3	90,9	1 057,6	104,9
Paxtaobod	392,4	119,1	12,5	102,9	379,9	119,7
Xo'jaobod	454,3	120,8	12,3	132,9	442,0	120,5

2021 - yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari viloyatning Ulug'nor (123,7 %), Xo'jaobod (120,8 %), Paxtaobod (119,1 %), Andijon shahar (118,2 %), Baliqchi (112,9 %) va Buloqboshi (111,2 %) tumanlarida kuzatildi.


## Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021 - yilning mos davriga nisbatan 35,4 % ga o'sdi va 1 202,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa, umumiy savdo hajmining 13,1 % ulushiga to'g'ri keladi.

Yirik korxonalar ulushi, % da




Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 8 001,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 7,9 % ga o'sdi. Viloyat miqiyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,9 % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushi, % da




Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



## Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hududlar kesimida ulushi, foizda

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Izboskan (98,8 %), Ulug'nor (98,8 %), Shahrixon (98,7 %), Buloqboshi (98,2 %) va Oltinko'l (98,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 13,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahrida (33,5 %), Andijon (10,8 %), Bo'ston (5,6 %) va Jalaquduq (4,3 %) tumanlarida kuzatildi.



Yirik korxonalar


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

## Andijon viloyati bo'yicha aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari

2022- yilning yanvar-iyun oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2 815,9 ming so'm (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 8,6 % ga o'sdi) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Andijon shahri (6 450,3 ming so'm), Xo'jaobod (3 957,2 ming so'm) va Shahrixon (3 441,1 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

	Hajm, ming so'm	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>2 815,9</b>	<b>108,6</b>
Andijon sh.	6 450,3	115,9
Xonobod sh.	2 207,9	108,2
<i>tumanlar:</i>		
Oltinko'l	1 778,5	104,1
Andijon	2 063,1	106,7
Baliqchi	2 216,0	110,8
Bo'ston	1 806,9	98,7
Buloqboshi	2 027,6	109,2
Jalaquduq	1 323,1	99,8
Izboskan	1 184,3	104,0
Ulug'nor	1 840,1	120,9
Qo'rg'ontepa	2 492,2	99,3
Asaka	2 391,6	100,0
Marhamat	2 159,8	105,8
Shahrixon	3 441,1	102,5
Paxtaobod	1 955,3	116,5
Xo'jaobod	3 957,2	118,1



## Uyushmagan savdo tovar aylanmasi\*

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 206,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 25,2 % ga ko'paydi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 420,9 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 141,9 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 785,5 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 117,7 %) tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

**Uyushmagan savdo aylanmasida dehqon va chorva bozorlari savdo  
aylanmasi hajmi va o‘shish sur‘atlari**


	<b>Jami, mlrd. so‘m</b>	<b>2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda</b>	<b>Dehqon bozorlari, mlrd. so‘m</b>	<b>2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda</b>	<b>Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so‘m</b>	<b>2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda</b>
<b>Andijon viloyati</b>	<b>1 206,4</b>	<b>125,2</b>	<b>420,9</b>	<b>141,9</b>	<b>785,5</b>	<b>117,7</b>
Andijon sh.	237,7	132,0	117,1	171,9	120,6	107,8
Xonobod sh.	4,4	171,2	4,4	171,2	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Oltinko‘l	17,5	88,2	6,8	96,0	10,7	83,8
Andijon	49,9	2,1 b.	49,9	2,1 b.	-	-
Baliqchi	79,4	124,9	7,4	111,3	72,0	126,5
Bo‘ston	7,6	95,9	3,0	138,9	4,6	79,4
Buloqboshi	45,0	104,9	9,3	112,2	35,7	103,1
Jalaquduq	25,2	106,0	5,2	122,6	20,0	102,3
Izboskan	10,5	113,0	2,8	130,1	7,7	107,7
Ulug‘nor	43,9	176,7	1,5	59,1	42,4	190,2
Qo‘rg‘ontepa	30,4	98,6	16,0	97,2	14,4	100,3
Asaka	131,0	91,0	51,9	90,8	79,1	91,1
Marhamat	78,4	100,7	24,4	97,5	54,0	102,2
Shahrixon	245,6	125,3	72,7	175,4	172,9	111,9
Paxtaobod	125,0	177,3	33,6	160,7	91,4	184,3
Xo‘jaobod	74,9	161,5	14,9	181,0	60,0	157,2

2022- yilning yanvar-iyun oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo‘jaligida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi, dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 420,9 mlrd. so‘mni, chorva (parranda) bozorlarida 785,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Uyushmagan savdo tovar aylanmasi:

### Dehqon bozori



2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 420,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (140,2 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

**Uyushmagan savdo tovar aylanmasi:  
Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so‘m**



2022- yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 785,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 636,7 mlrd. so‘mni, qo‘y va echkilar 130,1 mlrd. so‘mni, otlar 13,3 mlrd. so‘mni, parrandalar 5,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI

### Savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hajmi va o‘sish sur‘atlari

	Jami, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>134,3</b>	<b>112,1</b>	<b>8,9</b>	<b>-</b>	<b>125,4</b>	<b>104,6</b>
Andijon sh.	64,0	114,8	8,5	-	55,5	99,5
Xonobod sh.	1,5	91,5	-	-	1,5	91,5
<i>tumanlar:</i>						
Oltinko‘l	7,5	163,5	-	-	7,5	163,5
Andijon	10,2	85,3	-	-	10,2	85,3
Baliqchi	3,3	175,8	-	-	3,3	175,8
Bo‘ston	1,7	102,7	-	-	1,7	102,7
Buloqboshi	2,0	146,9	-	-	2,0	146,9
Jalaquduq	3,6	142,1	-	-	3,6	142,1
Izboskan	3,8	101,3	-	-	3,8	101,3
Ulug‘nor	1,3	88,2	-	-	1,3	88,2
Qo‘rg‘ontepa	3,9	95,3	0,4	-	3,5	85,4
Asaka	7,2	83,5	-	-	7,2	83,5
Marhamat	4,1	150,5	-	-	4,1	150,5
Shahrixon	12,8	104,9	-	-	12,8	104,9
Paxtaobod	3,5	108,0	-	-	3,5	108,0
Xo‘jaobod	3,9	164,3	-	-	3,9	164,3

2022- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,5 % ulushni tashkil etib, 134,3 mlrd. so‘mga yetdi va 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 12,1 % ga o‘ydi. Bunda jami savdo aylanmasining 93,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## Ulgurji savdo tovar aylanmasi


Asosiy tarkib, foizda



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Jami

Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Ulgurji savdo




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Oltinko'l

Shahrixon

Andijon sh.

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 325,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 8,2 % ga pasaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 218,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 73,7 % ga kamaydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi 2 106,9 mlrd. so'mni (23,7 % ga ortdi) tashkil etdi.

**Ulgurji savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes  
subyektlarining hajmi va o'sish sur'atlari**

	Jami, <i>mlrd. so'm</i>	2021- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, <i>mlrd. so'm</i>	2021- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, <i>mlrd. so'm</i>	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>2 325,6</b>	<b>91,8</b>	<b>218,7</b>	<b>26,3</b>	<b>2 106,9</b>	<b>123,7</b>
Andijon sh.	1 045,7	69,9	195,7	35,2	850,0	90,4
Xonobod sh.	14,2	105,7	0,2	131,3	14,0	105,4
<i>tumanlar:</i>						
Oltinko'1	224,1	3,5 b.	0,1	33,8	224,0	3,5 b.
Andijon	171,1	106,0	21,0	29,3	150,1	167,0
Baliqchi	95,5	141,0	0,1	31,8	95,4	141,8
Bo'ston	31,6	2,2 b.	0,1	52,3	31,5	2,2 b.
Buloqboshi	91,8	5,0 b.	-	-	91,8	5,0 b.
Jalaquduq	34,3	176,3	0,1	30,9	34,2	178,9
Izboskan	50,7	100,9	0,4	76,9	50,3	101,1
Ulug'nor	15,9	131,4	0,1	75,2	15,8	131,9
Qo'rg'ontepa	33,2	33,4	-	-	33,2	153,1
Asaka	75,9	48,8	0,1	0,06	75,8	112,0
Marhamat	8,2	188,2	0,2	80,7	8,0	195,6
Shahrixon	320,4	115,6	0,3	1,0	320,1	131,7
Paxtaobod	51,7	111,2	0,1	46,7	51,6	111,7
Xo'jaobod	61,3	185,4	0,2	35,6	61,1	187,6

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, 2 106,9 mlrd. so'mni va jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 90,6 % ni tashkil etdi.